

**QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI**




**Qashqadaryo viloyatida  
kichik tadbirkorlik  
2022- yil yanvar-sentabr**


# Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




yanvar-sentabr oylarida kichik  
tadbirkorlik subyektlarining  
YAHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM** dagi ulushi **68,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,3** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-sentabrida **6690** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **82,0 %** ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 2488 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1488 ta, sanoatda 1284 ta, yashash va ovqatlanishda 432 ta, qurilishda 218 ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

98,7



Sanoat

26,3



Qurilish

81,1



Investitsiya

31,0



Savdo

85,0



Xizmatlar

67,4



Eksport

35,5



Import

49,2



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

35543




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

6690

2022- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2021- y. ■ 2022- y.

■ (+;-)

# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022-yil 1-oktabr holatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

33,5 %



Sanoat

15,2 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

21,3 %



Qurilish

9,6 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,5 %



Tashish va saqlash

2,9 %



Axborot va aloqa

1,3 %




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,0 %




Boshqa faoliyat turlari

8,7 %



1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha 1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




■ 2021-y. ■ 2022-y.

■ (+;-)

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



## Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021- y. yanvar-sentabr

■ 2022- y. yanvar-sentabr

## 2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi shahri – 13,6 %, Koson tumani – 7,9 %, Qamashi tumani – 7,3 %, Yakkabog' tumani – 7,1 %, G'uzor tumani – 6,9 %, Qarshi tumani – 6,6 %, Shahrisabz tumani – 6,1 %, hissalari to'g'ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda  
2488 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida  
1488 ta

Sanoatda  
1284 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  
432 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 10,3 birlikni tashkil etdi.




Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1- oktabr holatiga ko'ra\*



2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*

2022- yilning 1- oktabr holatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida 23,1 birlik, Shahrisabz shahrida 13,2 birlik, Muborak tumanida 12,9 birlik, Mirishkor tumanida 11,6 birlik, Dehqonobod tumanida 10,4 birlikni tashkil etgan.



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermerlar va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **23,1** birlik, Shahrisabz shahrida **13,2** birlik, Muborak tumanida **12,9** birlik, Mirishkor tumanida **11,6** birlik, Dehqonobod tumanida **10,4** birlik, Nishon tumanida **9,8** birlik, Koson tumanida **9,8** birlik, Qarshi tumanida **9,7** birlikni tashkil etdi.


Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra\*

**Eng yuqori ko'rsatkich**  
Qarshi shahrida **23,1** birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**  
Qarshi tumani- **9,7** birlik.

**Past ko'rsatkich**  
Shahrisabz tumani - **6,8** birlik.

2022- yilning yanvar-sentabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 79,6 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 35,5% ini tashkil etdi.

## yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




## 2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Dehqonobod tumanida – 100,0 %, Ko'kdala tumanida – 100,0 %, Kitob tumanida – 99,9 %, Nishon tumanida – 99,4 %, ni eng past ko'rsatkich Qarshi tumanida – 4,8 %, Mirishkor tumanida 3,6 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **93,3** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **49,1** % ini tashkil etdi.



## 2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Ko'kdala tumanida – 100,0 %, Koson tumanida – 92,3 %, Qarshi tumanida – 85,9 %, Muborak tumanida – 76,9 %, Chiroqchi tumanida – 75,7 %, Qarshi shahrida – 70,8 %, Shahrisabz tumanida – 68,6 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Kasbi tumanida – 3,0 % ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




## 2022- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3924,3 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (808,4 mlrd. so'm), Qarshi (335,0 mlrd. so'm), Kasbi (306,3 mlrd. so'm), Qamashi (302,1 mlrd. so'm) va Koson (298,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Dehqonobod tumanida (73,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **26,3 %** ni tashkil etdi.


## 2022-yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ko'kdala tumani (100,0 %), Shahrisabz shahri (76,2 %), Chiroqchi tumani (74,0 %), Qamashi tumani (65,4 %), Kitob tumani (65,2 %), Shahrisabz tumani (48,1 %), Koson tumani (45,4 %), Mirishkor tumani (38,8 %), Qarshi shahri (32,0 %), Yakkabog' tumanida (30,7 %) ni tashkil etdi.

Dehqonobod tumanida (7,2 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **11735,3** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **85,0 %** ini tashkil etib, oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **105,8 %** ni tashkil qildi.

## 2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (2423,8 mlrd. soʻm), Koson (1066,9 mlrd. soʻm), Qamashi (1035,3 mlrd. soʻm) Chiroqchi (969,9 mlrd. soʻm), Shahrisabz shahri (747,0 mlrd. soʻm), Kitob (718,9 mlrd. soʻm) va tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4458,5** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **81,1** % ini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **109,9** % ni tashkil qildi.

## yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (1061,5 mlrd. soʻm), Qarshi (422,5 mlrd. soʻm), Kitob (384,7 mlrd. soʻm), Gʻuzor (368,8 mlrd. soʻm), Koson (321,3 mlrd. soʻm), Yakkabogʻ (261,7 mlrd. soʻm), Chiroqchi (250,3 mlrd. soʻm), Kasbi (207,9 mlrd. soʻm) hamda Shahrisabz tumanida (185,6 mlrd. soʻm) qayd etildi.

## 2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati




■ hajm, mlrd. soʻm

● oʻsish surʻati, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7734,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,4 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **118,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (1176,7 mlrd. so'm), Qarshi (750,2 mlrd. so'm), Kitob (681,8 mlrd. so'm), Koson (649,3 mlrd. so'm), Qamashi (635,4 mlrd. so'm) va Muborak (534,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 86,2 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 85,8 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,0 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 90,3 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,7 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil qildi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yil III- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1214** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 668 (55,1 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 452 (37,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 94 (7,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,6 % (116 ta), sanoatda – 14,0 % (170 ta), qurilishda – 11,5 % (139 ta) savdoda – 39,8 % (484 ta), xizmatlar sohasida – 25,1 % (304 ta) ni tashkil etdi.

## 2022- yil III- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yil III- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (282 ta), Kitob (103 ta), Shahrisabz shahri (95 ta), Qarshi (86 ta) va Yakkabog' (78 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2022- yil III- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




## 2022- yilning III- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning III - choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – 59,7 % ni, xizmatlar sohasida 56,9 % ni, savdoda 56,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 44,0 % ni va savdoda – 37,6 % ni tashkil etdi.

## 2022- yilning III- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning III- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 58,2 % ni, savdoda 57,9 % ni, Xizmatlar sohasida 57,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda 10,7 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 8,5 % ni, Xizmatlar sohasida 5,5 % ni tashkil etdi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	62,1	29,4	8,5
Band bo'lganlar soni	52,9	40,2	6,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	59,3	33,5	7,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	55,3	36,6	8,1
Raqobat muhiti*	63,6	31,1	5,3

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	67,7	27,0	5,4
Band bo'lganlar soni	61,6	34,0	4,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	63,5	31,2	5,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	61,3	32,3	6,3
Raqobat muhiti*	68,3	28,0	3,7


# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi  
bo‘limi

Tel: (75) 221-32-44